



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**

**24-OKTYABR
2025-YIL**



**O'zbek tilining
xalqaro maydondagi
nufuzi: tarix, bugun
va istiqbol**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**



**O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIX,
BUGUN VA ISTIQBOL**

**ВЛИЯНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ
АРЕНЕ: ИСТОРИЯ, СОВРЕМЕННОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**THE PRESTIGE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE
INTERNATIONAL ARENA: HISTORY, PRESENT, AND FUTURE**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami

OCTOBER 24, 2025



УДК:811.512.133(091)(100)(08)

Bugungi kunda “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya’ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrda “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni ijrosini ta’minlash hamda ta’lim jarayonida o‘zbek tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 2025-yil 24-oktyabrda o‘tkaziladigan **“O‘zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzi: tarix, bugun va istiqbol”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqolalar to‘plamini e’lon qiladi. Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida o‘zbek tili tarixi va uning xalqaro aloqalardagi o‘rni, hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, akademik litseylarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi, turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, turkiy tillarning rivoji va o‘zaro o‘xshashliklari, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o‘rganish, madaniy aloqalami zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish, raqamli texnologiyalar davrida o‘zbek tilining imkoniyatlari, raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha taniqli turkiyshunos olimlar, universitetlar, akademik litseylar professor o‘qituvchilari, iqtidorli talabalar hamda o‘quvchilarning maqolalari ham o‘rin olgan.

TAQRIZCHILAR:

Normamatov Sultonbek Ermamatovich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Ismailova Vasila Shuxratovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

TAHRIR HAY’ATI:

Adizov Bekjon Qo‘chchiyevich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori

Aliqulova Dilbar Esanovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Baxtiyorov Qobuljon Odiljon o‘g‘li - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 30-oktyabrda 4-sonli ilmiy majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.



**AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI
O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MILLIY VA
XORIJIY TAJRIBALAR INTEGRATSIYASI**

Adizov Bekjon Qo'chchiyevich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
akademik litseyi direktori

e-mail: adizovb77@mail.ru

10.52773/tsuull.conf.2025.24.10/XBPP7625

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Unda akademik litseylar ta'lim jarayonida milliy tajriba bilan bir qatorda Finlandiya, AQSh, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlarning ilg'or pedagogik yondashuvlari o'rganiladi. Interaktiv metodlar, raqamli vositalar va refleksiv o'qish strategiyalarining o'quvchilar ijodiy tafakkuri hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, o'qituvchining metodik mahorati va raqamli savodxonligini oshirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, o'zbek adabiyoti, innovatsion texnologiya, pedagogik metod, akademik litsey, ta'lim sifati, Finlandiya tajribasi, Amerika ta'lim modeli, raqamli ta'lim, tanqidiy fikrlash



INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE IN ACADEMIC LYCEUMS: INTEGRATION OF NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCES

Annotation: The article analyzes the theoretical and practical foundations of using innovative technologies in teaching Uzbek language and literature. It examines both national practices and advanced pedagogical approaches of countries such as Finland, the United States, South Korea, and Japan within the context of academic lyceums. The paper highlights the role of interactive methods, digital tools, and reflective reading strategies in developing students' creative and critical thinking skills. It also discusses ways to enhance educational quality through improving teachers' methodological competence and digital literacy.

Keywords: Uzbek language, Uzbek literature, innovative technology, pedagogical method, academic lyceum, quality of education, Finland experience, American education model, digital learning, critical thinking

Bugungi globallashuv davrida yangicha fikrlovchi, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalamasdan turib mamlakat taraqqiyoti va raqobatbardoshligini tasavvur etib bo'lmaydi. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga olib chiqish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu haqda shunday degan edi:

“Biz yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va yuksak ma'naviyatga ega insonlar qilib tarbiyalashimiz kerak. Chunki farzandlarimizning tafakkuri, dunyoqarashi, bilim darajasi qanchalik yuksak bo'lsa, yurtimizning kelajagi ham shunchalik porloq bo'ladi.”



Ta'lim sohasidagi bu yondashuv, ayniqsa, akademik litseylar faoliyatida o'z aksini topmoqda. Akademik litseylar o'rta maxsus ta'limning muhim bo'g'ini bo'lib, bu yerda o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, tanqidiy fikrlash qobiliyati va nutq madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tili va adabiyoti fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Chunki o'zbek tili – millatning ma'naviy boyligi, adabiyot esa yosh avlod qalbida estetik did va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiruvchi eng kuchli vositadir.

So'nggi yillarda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi qonun, “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, shuningdek, “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” kabi hujjatlar o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv metodlardan foydalanish va talabaning mustaqil fikrlashini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, akademik litseylarda o'zbek tili va adabiyotini o'qitish jarayonida bir qator muammolar mavjud: o'quvchilarda matn tahlili ko'nikmalarining sustligi, mustaqil fikrlash va nutq madaniyati yetarli darajada shakllanmagani, darslarda zamonaviy metodlarning yetarli qo'llanilmasligi shular jumlasidandir.

Mazkur maqolada ushbu muammolarga yechim sifatida jahon ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalar – Finlandiya, Janubiy Koreya, AQSh va Yaponiya maktablarida qo'llanilayotgan turli metodlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning nazariy va amaliy asoslari, milliy va xorijiy tajribalar integratsiyasi, o'qituvchining raqamli savodxonligi va metodik mahoratini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari akademik litseylar sharoitida ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda ijodiy tafakkur va mustaqil tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.



O'zbek tili va adabiyotini o'qitish jarayonida eng muhim maqsad – o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish, so'z boyligidan samarali foydalanish va estetik didni shakllantirishdir. Akademik litsey bosqichida bu jarayon yanada mas'uliyatli tus oladi, chunki aynan shu davrda o'quvchi o'zining hayotiy pozitsiyasini, dunyoqarashini va madaniy saviyasini shakllantiradi. Shu sababli o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining fikrlash uslubini yo'naltiruvchi, adabiy-estetik dunyosini boyituvchi yetakchiga aylanadi.

O'zbek tili va adabiyotini o'qitishda an'anaviy metodlar bilan cheklanib qolish, o'quvchilarning faqat eslab qolish qobiliyatini shakllantiradi, biroq ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish salohiyatini to'laqonli rivojlantira olmaydi. Shu bois, bugungi kunda interaktiv metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijodiy yozuv mashqlari va muammoli ta'lim usullarini qo'llash dolzarbdir.

Masalan, “Klaster” (tarmoqlashtirish) metodi o'quvchilarning mavzu yuzasidan fikrlarini tizimlashtirish, asosiy g'oyani aniqlash va mantiqiy bog'lanishlarni anglashga yordam beradi. Adabiyot darsida “Alisher Navoiy ijodida insonparvarlik g'oyalari” mavzusini o'rganishda bu metoddan samarali foydalanish mumkin. Dars boshida o'qituvchi “insonparvarlik” so'zini markazga yozadi va o'quvchilar bilan birgalikda Navoiy asarlaridagi insonparvarlikka oid misollarni, obrazlarni, g'oyalarni atrofga joylashtiradilar. Natijada o'quvchilar mavzuni nafaqat yodlaydilar, balki o'z fikrlarini asosli tahlil qilishga o'rganadilar.

“B-B-B” strategiyasi (Bilaman — Bilmoqchiman — Bildim) metodi ham har qanday mavzuda yaxshi natija beradigan usuldir. Bu metod, xususan, o'zbek tili fanida grammatik va leksik mavzularni mustahkamlashda juda samarali hisoblanadi. Masalan, “So'z turkumlari” mavzusini o'rganishdan oldin o'qituvchi jadvalning birinchi ustuniga “Bilaman” sarlavhasi ostida o'quvchilarning mavjud bilimlarini yozdiradi. Keyingi ustunga “Bilmoqchiman” degan joyda o'quvchilar yangi



bilmoqchi bo'lgan jihatlarini kiritadilar, dars yakunida esa “Bildim” ustuniga o'zlari anglagan xulosalarni yozadilar. Bu jarayon o'quvchini faol fikrlashga, o'z o'rganish jarayonini tahlil qilishga o'rgatadi. Shu orqali dars jarayonida o'quvchi subyekt sifatida ishtirok etadi, bu esa ta'lim samaradorligini keskin oshiradi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarni asar ruhini his etishga o'rgatish uchun “Rolga kirish” (dramatizatsiya) metodi samaralidir. Masalan, “Abdulla Qodiriy – “O'tkan kunlar”” romanini o'rganish jarayonida o'quvchilarga asardagi muhim sahnalarni sahnalashtirish topshirig'i beriladi. Bunda o'quvchi obraz ruhiyatini his etadi, qahramonning qarashlarini o'z tahlilidan o'tkazadi. Ushbu metod orqali dars faqat ma'lumot berish jarayonidan chiqib, hissiy-idrok va tafakkur uyg'otuvchi ijodiy muhitga aylanadi.

Shuningdek, “Bahs-munozara” metodidan foydalanish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, “Cho'lpon lirikasida milliy uyg'onish ruhi” mavzusini o'tayotganda sinfni ikki guruhga ajratib, ularni o'zaro bahsga chorlash mumkin. Guruhlarning biri “Cho'lpon romantik shoir”, ikkinchisi esa “Cho'lpon realist shoir” degan g'oyani himoya qiladi. Bunday dars o'quvchilarda adabiy tahlil, dalil keltirish, mantiqan fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Akademik litseylarda o'quvchilarning tahliliy fikrlash salohiyatini kuchaytirish uchun “Insert” metodi juda qulaydir. Bu metodda o'quvchi matnni o'qish jarayonida belgilar qo'yib boradi:

“+” men bilgan ma'lumot,

“–” yangilik,

“?” tushunarsiz joy,

“!” qiziqarli yoki hayratlanarli fikr.



Masalan, Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonini o‘rganishda o‘quvchi shu belgilar asosida o‘zining o‘qish tajribasini tahlil qiladi. Dars yakunida esa o‘qituvchi bu belgilar asosida o‘quvchilarning fikrini muhokama qiladi, bu esa o‘z navbatida har bir talabaning matnni qanday idrok etganini aniqlashga imkon beradi.

Bugungi kunda raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanish – dars jarayonining ajralmas qismi bo‘lib bormoqda. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda elektron taqdimotlar, interaktiv platformalar (Quizizz, Kahoot, Padlet, Canva) va multimediyaviy materiallardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, “Tilning ijtimoiy vazifalari” mavzusini o‘tayotganda o‘qituvchi o‘zbek tilining davlat tili sifatida turli sohalarda qo‘llanishi haqida videolavhalar yoki interaktiv testlar orqali tushuncha beradi. Bu usul nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki talabalarning mustaqil izlanish va axborot bilan ishlash malakasini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’limda metod tanlash tasodifiy emas, balki didaktik maqsad, o‘quvchi ehtiyoji va fan xususiyatlariga asoslangan ilmiy jarayondir. Pedagogika nazariyasida ta’kidlanishicha, o‘qitish jarayonida o‘quvchi faol ishtirokchi sifatida qatnashganida bilimlar barqaror o‘zlashtiriladi. Shu bois o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda ham faol o‘quvchi modelini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir.

Masalan, Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi rivojlangan ta’lim tizimlariga ega mamlakatlarda adabiyot darslari faqat matnni tahlil qilish bilan cheklanmaydi, balki “tajribaviy o‘qish” (experiential reading) metodikasi asosida o‘quvchiga asar voqealarini o‘z hayoti bilan bog‘lashni o‘rgatadi. Finlandiya ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Reading Diary” modeli bo‘yicha o‘quvchi har bir asar o‘qilgach, o‘z his-tuyg‘ulari, qahramonlarga nisbatan munosabati va tahliliy



fikrlarini maxsus kundalikda yozib boradi. Shu orqali o'qish jarayoni passiv emas, balki ijodiy va refleksiv (o'z fikrini tahlil qiluvchi) tus oladi.

Ushbu tajribani O'zbekiston akademik litseylarida ham tatbiq etish mumkin. Masalan, Maxmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasini o'rganishdan so'ng o'quvchilarga "Qahramonning joyida bo'lsang nima qilarding?", "Muallif nimani aytmoqchi bo'lgan?", "Hikoyaning bugungi hayotimizdagi ahamiyati qanday?" kabi savollar asosida refleksiya daftari yuritish topshiriladi. Bu yondashuv o'quvchini tahlilga, fikrni yozma shaklda ifodalashga o'rgatadi, bu esa adabiy savodxonlikni oshiradi.

Akademik litsey o'quvchilari yosh jihatdan mustaqil fikr yuritish bosqichiga kirganliklari sababli, ularda muammoli ta'lim metodlarini qo'llash katta samara beradi. Bu metodning mohiyati shunday: o'qituvchi tomonidan ma'lum bir muammoli vaziyat yaratiladi, o'quvchi esa mustaqil tarzda javob topishga harakat qiladi.

Masalan, "Tilning jamiyatdagi o'rnini" mavzusini o'tayotganda o'qituvchi shunday savol bilan murojaat qilishi mumkin: *"Agar davlat tilining maqomi qonuniy jihatdan mustahkamlanmagan bo'lsa, bu holat milliy ong va madaniyatga qanday ta'sir ko'rsatardi?"* O'quvchilar bu savol ustida kichik guruhlarda fikr almashib, dalillar keltiradilar. Natijada dars nafaqat grammatik yoki nazariy tushunchalarni o'zlashtirishga, balki ijtimoiy-madaniy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shunga o'xshash metodlardan AQShdagi Harvard Universitetining "Project Zero" dasturida ham foydalaniladi. Bu dastur o'quvchilarning ko'rinmaydigan tafakkur jarayonlarini "ko'rinadigan" holatga keltirishga qaratilgan. Ya'ni, o'quvchi o'z fikrlarini ifoda etish, tahlil qilish, boshqalar fikrini baholash orqali o'z tafakkurini ongli tarzda boshqarishni o'rganadi. Akademik litsey darslariga bu



yondashuvni moslashtirish orqali o'qituvchi har bir o'quvchining tahliliy tafakkurini rivojlantira oladi.

Bugungi ta'lim jarayonida integratsiya, ya'ni turli fanlarning o'zaro bog'liqlikda o'qitilishi, samaradorlikni oshiruvchi eng muhim yondashuvlardan biridir. O'zbek tili va adabiyotini tarix, falsafa, san'atshunoslik bilan bog'lash orqali o'quvchi asar mohiyatini chuqurroq anglaydi.

Masalan, "Boburnoma" mavzusini o'rganishda tarix fanidan olingan ma'lumotlar (XVI asr siyosiy hayoti, Movarounnahr sharoiti, Temuriylar davrining madaniyati) bilan integratsiya qilinsa, o'quvchi nafaqat matnni o'qiydi, balki muallif yashagan davrni ilmiy kontekstda idrok etadi. Bu usul adabiy tahlilni tarixiy va madaniy tahlil bilan uyg'unlashtiradi.

Jahon ta'lim amaliyotida ham bu yondashuv o'z samarasini bergan. Xususan, Buyuk Britaniyaning Cambridge Assessment International Education tizimida adabiyot darslari "cross-curricular link" usuli bilan olib boriladi, ya'ni har bir asar tarixiy, falsafiy va madaniy kontekstda o'rganiladi. Bu esa o'quvchilarda tizimli fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, adabiyot fanini o'qitishda o'quvchilarni ijodiy yozishga o'rgatish, ularni "o'quvchi-tahlilchi" darajasiga olib chiqadi. Bu borada ingliz-amerika metodikasida keng qo'llaniladigan "writing to learn" (o'rganish uchun yozish) yondashuvi diqqatga sazovor. Tadqiqotlar (J. Emig, 1977; L. Flower, 1994) shuni ko'rsatadiki, o'quvchi o'rganayotgan mavzu asosida yozganida, uning xotirasi, tushunish darajasi va tahliliy salohiyati kuchayadi.

Misol uchun, Erkin Vohidovning "O'zbekim" she'rini o'rganish jarayonida o'quvchilarga "Men o'zbekman, demak..." iborasi bilan boshlanadigan qisqa esse yozish topshiriladi. Bu mashq nafaqat milliy g'ururni uyg'otadi, balki o'quvchining



o'z fikrini badiiy usulda ifodalash ko'nikmasini rivojlantiradi. Shu orqali adabiyot darsi shunchaki matn tahliliga emas, balki fikr madaniyatini shakllantirish maktabiga aylanadi.

Metodik yangiliklarning samaradorligini ta'minlash uchun pedagogik monitoring tizimi muhim o'rin tutadi. Ya'ni, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, mustaqil fikrlash ko'nikmalari va nutq madaniyati muntazam tahlil etilishi kerak. Finlandiya va Singapur ta'lim tizimlarida har bir dars uchun "self-assessment" (o'z-o'zini baholash) va "peer review" (o'rtoqlik tahlili) shaklidagi baholash tizimi mavjud. Shu orqali o'quvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi, kamchiliklarini anglaydi va keyingi bosqichlarda ularni bartaraf etishga harakat qiladi.

O'zbekiston akademik litseylarida ham bu tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish zarur. Masalan, har chorak oxirida o'quvchilarga "Men bugun qanday o'rgandim?", "Qaysi metod menga eng ko'p foyda berdi?", "Qanday savollarim qoldi?" kabi refleksiv so'rovnomalar berilishi mumkin. Bu jarayon ta'limni bir yoqlama nazoratdan olib chiqib, uni hamkorlikdagi o'rganish madaniyatiga aylantiradi.

Akademik litseylarda o'zbek tili va adabiyotini o'qitish jarayoni zamonaviy pedagogik fikrning markazida turibdi. Bu bosqichda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, milliy qadriyatlarni anglash va nutq madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar o'z samarasini bermogda. Ammo ta'lim samaradorligini yanada oshirish uchun, avvalo, o'qituvchi shaxsiga, uning ijodkorligiga va raqamli savodxonligiga e'tibor kuchaytirilishi lozim. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy yo'l boshchi, psixolog va metodist sifatida ham faoliyat yuritadi.

Shu bois, ta'lim tizimida "innovatsion dars" konsepsiyasini shakllantirish zarur. Masalan, o'zbek adabiyotini o'qitishda "raqamli portfoliolar", "virtual adabiy



sayohatlar” yoki “matnni tahlil qilishning interaktiv platformalari”ni joriy etish orqali o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, tanqidiy fikrlashga undash mumkin. O‘zbek tilini o‘qitishda esa sun’iy intellekt asosidagi tahlil dasturlari, onlayn leksik o‘yinlar va ovoqli talaffuz mashqlari samarali natija beradi.

Kelgusida ta’limda fanlararo integratsiyaga, ya’ni til va adabiyotning tarix, falsafa, san’at kabi fanlar bilan uyg‘un o‘rganilishiga e’tibor qaratish lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilimni kengaytiradi, milliy adabiyotimizni global kontekstda anglash imkonini beradi.

Eng muhimi, o‘qituvchi o‘z tajribasini doimiy ravishda yangilab, jahon tajribasini mahalliy muhitga moslashtira olishi kerak. Chunki ta’lim metodikasi – bu tayyor qolip emas, balki o‘zgaruvchan, hayot bilan birga rivojlanadigan tizimdir. Ana shundagina akademik litseylar o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishda chin ma’noda ilg‘or, samarali va zamonaviy o‘quv muassasalari sifatida shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, akademik litseylarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasini yangilash – bu faqatgina dars o‘tkazish uslubini o‘zgartirish emas, balki yosh avlod tafakkurini o‘zgartirish, milliy g‘urur va ma’naviylikni chuqurlashtirish, fikrlovchi, o‘qiy oladigan, yozib va tahlil qilib biladigan shaxsni shakllantirish yo‘lidagi muhim ijtimoiy vazifadir. Shu boisdan, har bir pedagog dars jarayonida “Nimani o‘qitdim?” emas, balki “Talaba nima o‘rgandi?”, “U qanday fikrlashni o‘rgandi?” degan savollar asosida faoliyatini tashkil etishi zamon talabi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent: O‘zbekiston, 2020.



2. “O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasi” (ta’lim bo‘limi). — Toshkent, 2022.
3. Mirziyoyev Sh. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021
4. Yo‘ldoshev Q. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot”. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
5. Hasanov B. “O‘zbek tili ta’limida innovatsion yondashuvlar”. — Toshkent: Noshir, 2021.
6. Rasulova D. “Adabiyot darslarida interaktiv metodlardan foydalanish”. — Toshkent: TDPU ilmiy to‘plami, 2020.
7. Shodmonov, A. “O‘zbek tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv”. — “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, №2, 2020.
8. Qodirova S. “Akademik litseylarda ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchi innovatsion faolligining ahamiyati”. — “Ta’lim tizimi va zamon” to‘plami, 2023.
9. Karimov I. “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch”. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
10. Abdurahmonova Z. “Innovatsion pedagogika asoslari”. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
11. Vygotsky L. S. *Thought and Language*. — Cambridge: MIT Press, 1986.
12. Dewey J. *Experience and Education*. — New York: Collier Books, 1938.
13. Emig J. “Writing as a Mode of Learning.” *College Composition and Communication*, Vol. 28, No. 2 (1977).
14. Flower L., & Hayes, J. “A Cognitive Process Theory of Writing.” *College Composition and Communication*, Vol. 32, 1981.
15. OECD. *Innovating Education and Educating for Innovation: The Power of Digital Technologies and Skills*. — Paris: OECD Publishing, 2016.
16. Cambridge Assessment International Education. *Teaching and Learning Approaches in Global Context*. — Cambridge, 2020.



№	MAQOLA SARLAVHASI VA MUALLIFLARI	SAHIFASI
I SHO'BA. O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI		
1	ÖZBƏKİSTAN RESPUBLİKASINDA DİL SİYASƏTİNİN MÜSTƏQİLLİKDƏN SONRAKİ İNKİŞAF MƏRHƏLƏLƏRİ - Elçin İBRAHİMOV Prof. Dr. Qarabağ Universiteti Elm şöbəsinin müdiri	19-35
2	ORTAK DEĞERLERİMİZ: DİLİMİZ, KÜLTÜRÜMÜZ VE ATASÖZLERİMİZ - Ahmet Hamdi SALBAŞ Ali Şir Nevai Akademik lisesi öğretmeni	36-41
3	O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDA OMMALASHUVI: RIVOJLANISH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI - Bahodirov Botir Baxodirovich - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi yoshlar ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	42-47
4	TIL – MILLAT KO'ZGUSI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna, Osimova Rayxona Adhamjon qizi - Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari	48-51
5	O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI - Nazarova O'rozhol Xudoyberdiyevna - Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	52-55
6	FRANSUZ TILINI TARIXIY RIVOJLANISHI - Usmanova Malika Adilovna Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi	56-58
7	FRANSUZ TILIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARI - Andapulatova Firuza Ikramovna - Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi	59-62
8	O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI - Yangiboyeva Umida Ravshanbek qizi Urganch innovatsion universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi, 24-01 guruh talabasi	63-66
9	MAXMUD QOSHG'ARIYNING LINGVISTIK QARASHLARI - Umarov Abroroxuja Vaxobovich Namangan davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	67-70
10	O'ZBEK TILINING XALQIMIZ VA XALQARO ALOQALARDAGI AHAMIYATI - Saidova Dildora Baxtiyarovna TDTU 3-son akademik litseyi o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi	71-74
11	O'ZBEK TILI: MILLIY O'ZLIK VA XALQARO E'TIROF RAMZI - Eshnayeve Feruza Qarshiyevna Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	75-77
12	İLİM ÜZERİNE - Zahro Mahmudova Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Xorijiy tillar (turk) yo'nalishi o'qituvchisi	78-82
13	"CODEX CUMANICUS"DA İŞLƏNƏN BƏZİ SÖZLƏRİN DİALEKTLƏRDƏ İZLƏRİ - İmanyar QULİYEV AMEA Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu, böyük elmi işçi, fil.ü.f.d. Bakı Avrasiya Universiteti, müəllim	83-94
II SHO'BA. HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI		
14	ELBEKNING LUG'ATCHILIK FAOLIYATI HAQIDA - Normamatov Sulton Ermamatovich Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Filologiya fanlari doktori (DSc), professor	96-102
15	IS'HOQXON IBRAT ASARLARIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY, MAISHIY LEKSIK QATLAM QO'LLANISHIDAGI LISONIY VA NOLISONIY OMILLAR - Latipov Murotali Mannobovich Guliston davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.	103-107
16	ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Abbasova Mubina Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti stajer-tadqiqotchisi	108-112
17	FIZIOLOGIK HOLAT FE'LLARINING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR - Pulat Fozilov Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi	113-119
18	DINIY LEKSEMALARINING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI TAVSIFI -Mirzayeva Mashxura Ravshanbek qizi Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	120-124



19	LINGVOPRAGMATIKANING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI - Kobilov Nomoz O'rolovich Sharof Rashidov nomidagi SamDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi (PhD)	125-128
20	HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Abdurasulova Raximaxon Odiljon qizi Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	129-131
21	KULOLCHILIK LEKSIKASIDA DETERMINATSIYA VA TERMINOLOGIZATSIYA HODISALARI Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori	132-136
22	QADIMGI VA ESKI TURK BITIKLARIDA TABG'ACH VA QITANY (XITOIY) TOPONIMLARI MASALASI - Mamajonov Alisherbek Ravshanbek o'g'li Farg'ona davlat univeristeti Lingvistik: o'zbek tili mutaxassiligi magistranti	137-143
23	HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi Shahrizabz davlat pedagogika instituti huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	144-147
24	"MUNOZARA" DRAMASIDA QO'LLANGAN BA'ZI UNDOV SO'ZLARINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI - Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyi Tillar kafedrasida yetakchi o'qituvchisi	148-151
25	O'ZBEK TILIDA SINTAGMATIK MA'NO VA SINTAGMATIK MUNOSABAT, ULARNING IFODALANISH YO'LLARI - Usmonova Huriniso Sharapovna, Namangan davlat universiteti professori	152-156
26	HID KONSEPTI - Qurbonov Akmaljon Tavakaljon o'g'li Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	157-162
27	METATIL VA TARIXIY TURKOLOGIYA: 'AT-TUHFATUZ ZAKIYATU FIL-LUG'ATIT-TURKIYA ASARINING ILMIY MEROSI - Xolbekova Nargiza Zohidjonovna FarDU mustaqil izlanuvchisi, FarDU akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi	163-165
28	O'ZBEK VA INGLIZ DISKURSIDA TOLERANTLIKNING MADANIY JIHATDAN IFODALANISHI - Gavharoy Yormatova Abdulla qizi Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi	166-171
29	O'ZBEK TILIDA O'XSHATISHLI QURILMALAR BADIYYATI - Gazibekova Soxiba Yusupovna O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining mustaqil izlanuvchisi	172-176
30	AYRIM DEHQONCHILIK LEKSIKASI ETIMOLOGIYASI - Pirmatova Ozodaxon Sapparboyevna Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi	177-181
31	NAMANGAN QIPCHOQ SHEVALARIDA ADABIY TIL LUG'ATINI BOYITISHGA XIZMAT QILUVCHI BIRLIKLAR - Mamatismoilova Xanifa Hayitmirzayevna, NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Pirmatova Mahfuza Muhibullayevna, NamDTU 2-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	182-189
32	O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA YUKLAMALAR TADQIQI - Ismailova Dilnoza Shavkatovna Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	190-195
33	O'ZBEK TILIDAGI SINTAKTIK BIRLIKLARDA KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK MA'NO IFODALANISHI - Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna, University of Business and Science dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori	196-201
34	XALQ DOSTONLARI LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI - Abduqahhorova Muattar Ma'rufjon qizi, Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	202-207
III SHO'BA. AKADEMIK KITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI		
35	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR INTEGRATSIYASI - Adizov Bekjon Qo'chchiyevich, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori	209-219
36	«LEKSIKOLOGIYA» BO'LIMINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH YO'LLARI - Ismailova Vasila Shuxratovna, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	220-230



37	AKADEMIK LITSEYDA O'ZBEK TILI O'QITISHNING AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI - Botirova Soliyaxon Ro'zivojevna O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	231-238
38	ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI - Urazova Nargiza Qurdashovna , TXVU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	239-246
39	O'ZGA TILLI GURUHLARDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'RGANISH -Shomurodova Sitora Xoshim qizi , "International house – Tashkent" akademik litseyi o'zbek tili fani o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)	247-250
40	UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH MASALALARI (Qozog'istondagi ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablar misolida) - Naraliyeva Shahlo Djamalovna , Jumabek Tashenev nomli universiteti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) (Qozog'iston, Chimkent) Hulkar Hamroeva , O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dosenti, filologiya fanlari doktori (O'zbekiston, Toshkent)	251-260
41	SAID AHMADNING „QORAKO'Z MAJNUN“ASARINI O'RGANISH - Nasriyeva Dilbar Muhiddinovna , Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	261-264
42	AKADEMIK LITSEY DARS JARAYONIDA "QUTADG'U BILIG" ASARINING O'QITILISHI - Matkarimova Nasiba Bekchanovna , Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	265-267
43	AKADEMIK LITSEYLARDA ANTON PAVLOVICH CHEXOV HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI - Farida Abdullayeva Xayrulla qizi , Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI akademik litseyi o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi	268-272
44	AKADEMIK LITSEY DARSLIKLARIDA TAQLID SO'ZLAR MAVZUSINING BERILISHI TO'G'RISIDA - Narziyeva Nazokat Abdurasulovna , Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, SamDU mustaqil izlanuvchisi	273-277
45	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI -Mansurova Zilola Bahodirovna , Navoiy davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	278-283
46	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FANINI O'QITISHDA INGLIZ TILI METODIKASIDAN FOYDALANISH TAHLILI - Ashurova Feruza Maxamadyusupovna , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi chet tillari kafedrasida ingliz tili fani o'qituvchisi	284-288
47	ADABIYOT – SO'Z SAN'ATI - Xakimova Shapoat Pazliddinovna , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	289-293
48	ABDULLA QODIRIY IJODINI O'RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH - Djabbarova Nodira Shovkat qizi , Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	294-297
49	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O'QITISH METODIKASI - Ahmadaliyev Shohruh , Toshkent Davlat Yuridik Universiteti huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi Matematika fani o'qituvchisi	298-303
50	ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI - Mamatova Maxbuba Abdulboqi qizi , Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	303-306
51	AKADEMIK LITSEYLARDA O'ZBEK TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Toshmurodova Xalima To'raxonovna , Chirchiq davlat pedagogika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	307-310
52	KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA DIDAKTIK ADABIYOTNING O'RNI - To'xtaboyeva Muyassar , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani, oliy toifali o'qituvchisi, falsafa fanlar doktori (PhD) Jo'rayeva Muhabbat , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani oliy toifali o'qituvchisi	311-315
53	ADABIYOT O'QITISHDA BADIY TAHLIL MUAMMOLARI - Hamdamova Manzura Jurabayevna , Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	316-319



54	ONA TILI DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH - Achiliva Nasiba Saidovna , Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot o'qituvchisi	320-324
55	AKADEMIK LITSEYLARDA "MA'NO KO'CHISH YO'LLARI" MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI - Egamberdiyeva Vazira G'ulomovna , Guliston davlat universiteti akademik litseyi Ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	325-328
56	ADABIYOT DARSLARIDA FSMU TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH - Matluba Rahmonova Usmonovna , NamDU akademik litseyi o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi	329-333
57	«HOL VA UNING USLUBIYATI» MAVZUSINI O'RGANISHDA AXBOROT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING QO'LLANILISHI - Achilova Zarina Saidovna , Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	334-338
58	ADABIY MATN ASOSIDA LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI - Norov Jamshid Nurulloevich , Buxoro davlat pedagogika instituti, Xorijiy tillar kafedrası tayanch doktoranti	339-342
IV SHO'BA. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI		
59	SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH: IMKONIYATLAR, USULLAR VA MUAMMOLAR - Aliqulova Dilbar Esanovna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	344-352
60	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARI. "RAQAMLI O'ZBEKISTON - 2030" STRATEGIYASI - Shodiyeva Nigora Murodullayevna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi informatika fani o'qituvchisi	353-358
61	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI - Sulaymonova Nafisa Sattorovna , Navoiy davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	359-362
62	TILSHUNOSLIKDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARNING O'RNI - Qosimova Dilnoza Toshkanovna , O'zDTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	363-367
63	ЦИФРОВАЯ ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ТЕКСТА: СОЗДАНИЕ КОМИКСОВ ПО РАССКАЗУ А. КАХХАРА «ДВА САПОГА-ПАРА» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ CHATGPT - Атабекова Айну р Женисбековна, Преподаватель русского языка и литературы. Академический лицей Филиала РГУ нефти и газа(НИУ) имени И.М.Губкина	368-372
64	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi , ShDPI huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	373-376
65	ONA TILI TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna , Osimova Rayxona Adhamjon qizi, Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari	377-381
66	THE ROLE OF LANGUAGE IN THE DIGITAL AGE - Ibragimova Hurriyat Uchqun qizi , JMCU master's student in Journalism Teacher of Uzbek Language and Literature at the M.S. Vosiqova Academic Lyceum under Tashkent State University of Law	382-387
67	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Bahodirova Dildoraxon Zarifjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	388-390
68	RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA O'ZBEK TILINING IMKONIYATLARI - Saminova Muslimaxon Quadratjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	391-394
69	YAPAY ZEKÂ VE ÖZBEK DİLİ: SORUNLAR VE ÇÖZÜMLER - Allanazarova Anora Muxobir qizi Shahrizabz davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti.	395-400
70	RAQAMLI ASRDA ONA TILI ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI SAQLASH VA RIVOJLANTIRISH- O'rinova Sayyora Xolmirzayevna , TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi "Tillar" kafedrası ona tili va adabiyot fani bosh o'qituvchisi	401-409



V SHO'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI

71	MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK –AZARBAYJAN ADABIY ALOQALARI: NIZOMIY “XAMSA” SINING TARJIMASI HAQIDA - Ashurova Gulbahor Nurullayevna , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti	411-418
72	TURKIYADA ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHNING YETAKCHI TENDENSIYALARI - Cho'lliyeva Latofat Sevindikovna , ToshDO'TAU tayanch doktranti, ToshDO'TAU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	419-438
73	ИСТОРИЯ ЛИТЕРАТУРЫ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ - Султанова Майя Туйчиевна , преподаватель АЛ САМ ГИИЯ Академический лицей Самаркандского Института Иностранных Языков Республика Узбекистан, г. Самарканд	439-443
74	ALISHER NAVOIY IJODINING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA O'RGANILISHI - Karimova Yulduz Baxtiyorovna (PhD) , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	444-448
75	ADABIY MUHITNING QODIRIY IJODIGA TA'SIRI - Abdilakimov Dilruxjon Rajab o'g'li Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	449-455
76	O'RXUN-ENASOY BITIKLARI ASOSIDA TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI -Madaminova Rayhona Alisher qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	456-459
77	MAHMUD QOSHG'ARIY VA UNING TURK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Madina Zokirova Shuhratjon qizi , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	460-463
78	MAHMUD QOSHG'ARIY – TURKIY TIL VA ADABIYOTINING ASOSCHISI - Satimova Ra'noxon Habibullayevna , Andijon davlat tibbiyot instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	464-469
79	YUSUF XOS HOJIBNING TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Ne'matova Benazir Adilbekovna , Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi xorijiy tillar yo'nalishi o'quvchisi	470-473
80	JAZBIYNING TURKIY DEVONI QO'LYOZMALARI - Samadova Madina Zafarjon qizi , Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	474-479
81	XIDIR DERYAYEVNING “QISMAT” ASARI TAHLILI -Xolmurodova Mahliyo , Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-bosqich talabasi	480-482
82	ILM VA ADABIYOTNING SINTEZI: "OLIM-SHOIR" MODEL - Akbarova Sayyora Sobirovna , Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Shamsiddinov Nasriddin Bahriddinovich , Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi	483-488
83	YOSHLAR TARBIIYASIDA MILLIY TILNING O'RNINI VA AHAMIYATI - GO'ZALOY MAMEDOVA Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti akademik litseyi oliy toifali, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi	489-491



